



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **MUHAMMAD ALINING “MANGU QUYOSH” ROMANIDAGI YORDAMCHI OBRAZLAR**

**Usmonova Sharifa Gulamovna**

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining “Mangu quyosh” romanidagi yordamchi obrazlarning badiiy funksiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, yordamchi obrazlarning bosh qahramon Hazrat Navoiyning qiyofasi va xarakteriga qaratilib, asardagi badiiy vositalarning ahamiyati ko‘rsatilgan.

**Kalit sozlar:** Hazrat Navoiy, Husayn Boyqaro, yordamchi obraz, qahramon, tarixiy shaxs, uslub.

## **ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЕ ОБРАЗЫ В РОМАНЕ МУХАММЕДА АЛИ “ВЕЧНОЕ СОЛНЦЕ”**

**Усманова Шарифа Гуламовна**

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, независимый исследователь

### **Аннотация**

В данной статье анализируется художественная функция второстепенных персонажей в романе “Вечное солнце” народного писателя Узбекистана Мухаммеда Али. Кроме того в центре внимания - образ и характер второстепенных персонажей, в частности главного героя, Хазрета Навои и показана важность художественных средств в произведении.

**Ключевые слова:** Хазрет Навои, Хусейн Бойкаро, второстепенный персонаж, герой, историческая личность, стиль.

## **SUPPORTING IMAGES IN MUHAMMED ALI'S NOVEL “ETERNAL SUN”**

**Usmonova Sharifa Gulamovna**

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Independent Researcher

### **Abstract**

This article analyzes the artistic function of secondary characters in the novel “Eternal sun” by the people’s writer of Uzbekistan, Muhammad Ali. Furthermore the focus is on the image and character of secondary characters, particularly the protagonist, Khazret Navoi and demonstrates the importance of artistic devices in the work.

**Keywords:** Khazret Navoi, Husesein Boykaro, secondary character, hero, historical figure, style.

Har qanday badiiy asarning asosi –mojarodir (konflikt). Tarixiy shaxslar haqidagi asarlarda muallif faqat faktlarga tayanib qolmasdan, davr ruhi va qahramon psixologiyasini ochish uchun to‘qima obrazlardan foydalanadi. Romanda tarixiy obrazlar bilan bir qatorda to‘qima obrazlar ham asar syujetiga kiritilgan. Asardagi hech bir to‘qima obraz yoyinki yordamchi obraz ijtimoiy muhitdan tashqarida emas. Ular asarning g‘oyaviy mazmunini ochib berishda, bosh qahramon xarakterini yoritishda hamda syujetni harakatga keltirishda hal qiluvchi omil vazifasini o‘tagan. Ular xuddi binoning g‘ishtlarini tutib turuvchi qorishmaga o‘xshaydi: ko‘zga doim ham tashlanmasligi mumkin. Bosh qahramon quyosh bo‘lsa, yordamchi obrazlar ushbu quyoshning nurini qaytaruvchi va uning hajmini ko‘rsatib beruvchi sayyoralaridir. Muhammad Ali tomonidan yaratilgan funksional (to‘qima) obrazlar asar strukturaviy yaxlitligini ta’minlashga xizmat qilgan.

“Roman voqeligiga kiritilayotgan har bir personaj goho sezilarli, goho ko‘zga ko‘rinar-ko‘rinmas iplar bilan o‘zaro bog‘lanadi. Ular asarda muallifning badiiy niyati ijrosida muhim rol o‘ynab bosh konsepsiyaning amalga oshuvida xizmat qiladi. Har bir obrazning asardagi ishtiroki qay darajada qiymatga

ega bo‘lishidan qat’iy nazar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Biri ikkinchisini taqazo qiladi. Ularning barchasi asosiy maqsad sari jamlanadi, shu yo‘lda jipslashadi”

Tadqiqotimiz doirasida romandagi to‘qima obrazlarni quyidagi funksional guruhlarga ajratishni lozim topdik:

1. Tarixiy muhit va davr kolorotini yaratishga xizmat qilgan to‘qima obrazlar

Navoiy yashagan Temuriylar davrining ijtimoiy manzarasini faqatgina

tarixiy shaxslar (Sulton Husayn Boyqaro, Jomiy, Behzod) orqali to‘liq ko‘rsatib bo‘lmaydi. Oddiy xalq vakillari – kosiblar, bog‘bonlar, dehqonlar yoki saroy xizmatchilari obrazlari orqali muallif XV asr Hirotning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini “jonlantiradi”. Bu obrazlar asarda Navoiyning xalqqa bo‘lgan munosabatini ochib beruvchi ko‘prik vazifasini o‘tagan.

Asarda Navoiyning Mashhadga borayotib Pariyondagi bog‘bon bilan bo‘lgan uchrashuvi manzarasini yozuvchi quyidagicha tasvirlaydi:

...Hazrat... oqsoqol doim menga shunday tegajaklik qiladur...- kuldi ochiq chehrali dehqon.- Ammo men insofli odamman, chunonchi uning qarquloqligini, bir gapni to‘rt marta aytsa ham eshitmasligi haqida hech kimga og‘iz ochmayman, ko‘rganlarga ham bu haqda birovga bildirmang, iltimos, deb qattiq tayinlayman.

Hamma barobariga kulib yubordi. Shartaki fe‘l qishloq oqsoqoli Navoiyning hazilni yoqtirishini eshitgandi, avom uchun u davlat rahbari, amir emas, tanish-notanishligiga qaramay uni hamma yaqin olar, o‘z kishisi deb hisoblardi. Navoiy buni yuragidan sezar, bundan mamnuniyat hissini tuyardi. Hazilning beg‘ubor shavqidan oqsoqol ham, bog‘bon ham xursand, minnatdor bo‘lardilar.

Navoiy buni ko‘p kuzatgan. U ona xalqining bir fazilatini- hazil-mutoyibani yoqtirishi va to‘g‘ri tushuna olishini juda qadrlaydi. Dunyoga keng boqqan ulug‘

xalqlarigina bunday tuyg‘uga ega bo‘ladilar, hatto katta fojialarni ham kulib yengib o‘tadilar. Bu o‘z-o‘ini ayash, behuda narsalarga o‘chakishmaslik, keng fe‘llilikdan, hayotni teran anglab yetish hissidan kelib chiqadi.

2. Alisher Navoiy ruhiyatini ochib beruvchi to‘qima obrazlar

Tarixiy manbalarda Navoiyning davlart arbobi yoki shoir sifatidagi qiyofasi aniq bo‘lsa-da, ularning ichki kechinmalari, shaxsiy fojialari ko‘p hollarda ifoda etilmagan.

To‘qima do‘stlar, shogirdlar yoki raqiblar Navoiy bilan muloqotga kirishish orqali bosh qahramonning ichki monologlarini dialoglarga aylantiradi. Bu o‘quvchi Navoiyning “insoniy” tomonini – uning iztiroblari, orzulari va shubhalarini his qilishga yordam beradi.

3. Ziddiyatlar zanjirini qurishga xizmat qiladigan obrazlar

Har qanday badiiy asarning asosini konflikt tashkil etadi. Tarixiy dushmanlar Nizomulmulk, Qozikalon, Parvonachi, amir ul-umaro Sa‘dvaqqos kabi hasadgo‘y obrazlar ham asarga olib kirilgan. Bu obrazlar Navoiyning adolatparvarlik g‘oyalari qarshi turuvchi “zulmat” kuchlarini ifodalaydi. Ularning yovuzliklari fonida Navoiyning ma‘rifat quyoshi, mangu quyosh ekanligi yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

4. Ramziylik va falsafiy umumlashtirish uchun xizmat qiladigan obrazlar

Roman nomidagi “quyosh” metaforasi asar davomida turli to‘qima detallar va obrazlar orqali quvvatlangan. Ayrim to‘qima obrazlar muayyan g‘oyaning tashuvchisi hisoblanadi. Masalan, Navoiyga tasodifan duch kelgan bir donishmand chol yoki gumbaz qurayotgan ustaning so‘zlari shoirning falsafiy qarashlarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Obraz turi	Badiiy funksiyasi	Misol
Liro-estetik	Navoiyning ishqiy-falsafiy olamini ochish	Shoirning ko‘ngil sirlari bilan bog‘liq bo‘lgan Bade‘uljamol siymosi yoki xayoliy suhbatdoshlar (binafshalar)
Ijtimoiy-maishiy	Davrning “pastki qatlami” hayotini ko‘rsatish	Bozor ahlidan bo‘lgan to‘qima obrazlar, dehqonlar
G‘oyaviy-polemik	Bosh qahramon bilan bahslashish, muallifning g‘oyaviy pozitsiyasini ko‘rsatish va qabul qilingan fikrlarga qarshi chiqish	Navoiyning islohotlariga shubha bilan qarovchi, lekin dushman bo‘lmagan personajlar.

Roman nafaqat tarixiy xronika, balki Alisher Navoiyning ruhiy olami xaritasi sifatida namoyon

bo'ladi. Jumladan, yozuvchi Xoja Dehdor, Boboali obrazlarini asar syujetiga olib kirgan, bular orqali Navoiyning qay darajada inson bo'lganligi ko'rsatib o'tilgan.

"Bir kuni Badiuzzamon Mirzo yigitlari va mulozimlarini ergashtirib, Astrobod viloyatini aylanishiga chiqdi va xushmanzara Xayrabod qishlog'iga yo'li tushdi. Qishloqni ko'rib, shahzodaning havasi jo'shdi, bamisli jannatday joy ekan, ichida, menda ham shunday qishloq bo'lsaydi, degan istak paydo bo'ldi...Kishilarning xulq-atvori ham a'lo, boodob va sertavoze ekan.

Ittifoqo, shu palla uning hamrohlari orasida Xoja Dehdor ham bor edi. U negadir Xoja Dehdorga yorildi:

-Xayrabod juda farishtali chingling maskan ekanmi!...Kimning qishlog'i bu?Koshkiydi, shunday chorbog'laring bo'lsa!...Men sizga aytsam, Xayrabod qishlog'i Astrobod hokimi Nizomiddin Mir Alisher mulklari qabzasiga kiradur... –

Sulton hazratlarining yaqin do'sti, xayru ehsonlar peshvosi amir ul-zamon Nizomiddin Mir Alisher kaminaning sohibi erurlar, men ul valine'matning o'rinbosaridurmen...-Xoja Dehdorning so'zlari salmoqli chiqdi.-Azbaroyi yaqinligimdan ul Hazratga tegishli mol-mulkni istaganimcha tasarruf qilmog'im mumkin.Ha-a!Ushbu qishloqni, ul Hazrat nomidan siz-jahon shahzodasiga hadya etishga qaror berdim!" Mazkur gap oliy nasabli amir ul-zamon Navoiy qulog'iga yetib borganda, ul zot, hayratdan hammani yoqa ushlatib, lolu hayron etib qo'ydi:dashnomlar olishga tayyor bosh egib turgan Xoja Dehdor sha'niga ...tahsinlar aytdi:....Shahzodaga nima tuhfa etsam ekan, deb o'ylab yurg'ondim.Mana, Xudoning oz'i mushkulimizni oson etdi:shahzoda yoqtirg'on va tilog'on so'lim Xayrabod qishlog'i unga tortiq qilindi!...Xoja Dehdor "xolis xizmati" uchun yaxshi bir chopon, bir otning bahosiga teng ming kepakiy miqdorida aqcha bilan siylandi!

Badiuzzamon Mirzo Navoiyga tuhfa uchun o'z tashakkurini izhor etdi va tiz cho'kib shoir to'ning peshini uch bor o'pib, ko'zlariga surtdi... Bu bilan biz Navoiyning qo'l ostidagi xizmatchilariga bo'lgan ishonchi yuksak ekanligini, ularga nisbatan mehr-muhabbati yuqori ekanligini ko'ramiz.Bunday bag'rikenglik, javonmardlik, faqat, Navoiyga xos xususiyat.Navoiyning ehson dasturxonlari har kuni Hirotda ham, Mashhadga ham, Balxda ham yozilib turgan, o'zlari ham Mashhadga borganlarida ana shu dasturxondan bahra olganlar.Navoiyning o'ziga ham bir turmak to'n, kuniga ikki dinor aqcha kifoya bo'lgan.

Romandagi yordamchi obrazlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- jamiyatning eng og'riqli muammolarini ko'rsatib beradi;
- yovuzlik va yaxshilik o'rtasidagi kurashlarni aks ettiradi;
- jamiyatga xos bo'lgan urf-odat va an'analarni yoritadi;
- ijtimoiy muhitga tegishli yutuqlarni, taraqqiyot va uning sabablarini aks ettiradi.

Jamiyatning eng og'riqli muammolarini ko'rsatib beradi-Temuriylar saltanatidagi o'zaro toj-taxt talashuvlari va qonli urushlar, kuchli ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, ziyolilarning ta'qib qilinishi.Ushbu nizolar xalq hayotini og'irlashtirib,

madaniy-ma'rifiy to'sqinlik qilgan.Asarda quyidagi voqealar adib tomonidan alohida tasvirlangan.Alisher Navoiy temuriy shahzodalar o'rtasidagi toj-taxt talashuvlari avjiga chiqqan juda murakkab bir davrda yashab, ijod qildi.U shunchaki shoir emas, balki yirik davlat arbobi sifatida bu nizolarni to'xtatish va saltanat barqarorligini saqlashda markaziy figuraga aylangan edi.Navoiyning bu boradagi o'rni va faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'lishimiz mumkin:

1.Sulton Husayn Boyqaro bilan do'stlik va siyosiy barqarorlik.

Navoiy Husayn Boyqaroning eng yaqin maslakdoshi va bosh vaziri ("amiriddavla") sifatida Xuroson taxtining mustahkamlanishiga xizmat qildi.U shahzodalar va mahalliy amirliklarning o'zboshimchaligiga qarshi chiqib, kuchli markaziy hokimiyatni qo'llab-quvvatladi.Navoiy ko'p hollarda qurolli to'qnashuvlarning oldini oldi.Doim Husayn Boyqaro bilan o'g'illari o'rtasidagi nizolarda vositachilik qildi.

2.Shahzodalar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish.Husayn Boyqaro bilan o'g'illari (Badiuzzamon Mirzo, Muzaffar Husayn Mirzo va boshqalar) o'rtasidagi nifoq saltanatni ichdan kemirayotgan edi.Badiuzzamon Mirzo otasiga qarshi isyon ko'targanda, Navoiy ota va o'g'ilni yarashtirish uchun bir necha bor xavfli safarlarga chiqqan va qon to'kilishining oldini olgan.Navoiy shahzodalarga ilm-odobdan dars berib, ularni xalqparvar hukmdor qilib tarbiyalashga urindi.Alisher Navoiy temuriylar saltanatini halokatdan qutqarib qolishga uringan "so'nggi ma'naviy qalqon" edi.U toj-taxt talashuvlari oqibatida parchlanayotgan sulolani madaniyat va adolat atrofida birlashtirishga harakat qildi.Asarda markaziy hokimiyat faqat qurol kuchi bilan emas, balki Navoiy kabi shaxslarning ma'naviy nufuzi bilan ushlab

turilganiga alohida urg'u beradi. Muhammad Ali bu asari orqali "Adolat bor joyda mamlakat obod, zulm va nifoq bor joyda esa har qanday buyuk saltanat ham halokatga mahkum" degan g'oyani ilgari suradi. Toj-taxt talashuvlari faqat shaxslar jangi emas, balki butun bir madaniyat va iqtisodiyotning fojiasi ekanini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tanglik: qonli urushlar tufayli dehqonchilik va hunarmandchilikning tushkunlikka uchrashi va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi. Romanda tinimsiz davom etgan ichki urushlar oddiy xalqning tinkasini quritgan edi. Qo'shinlarning bir viloyatdan ikkinchisiga o'tishi jarayonida dehqonlarning mehnati bilan bunyod etilgan bog'-rog'lar, bug'doyzorlar otlar tuyog'i ostida qoladi. Urushlar tufayli kanallar va ariqlarni nazorat qilish, ularni tozalash ishlari to'xtab qoladi. Roman qahramonlari tilidan suvning hayot manbai ekanligi biroq, nizo tufayli suv yo'llari qarovsiz qolgani achinish bilan bayon qilinadi. Urush xarajatlarini qoplash uchun hukmdorlar va mahalliy dorug'alar xalq ustiga favqulodda soliqlar yuklaydi. Romanda Navoiyning aynan mana shu adolatsiz soliqlarga qarshu kurashgani, mazlum hunarmandlar tomonida turgani muhim syujet chizig'idir.

Adolatning yo'qolishi: Ba'zi amaldorlarning o'z manfaatlarini o'ylab, xalqni talon-taroj qilishi, adolatsiz boshqaruv.

Ziyolilar ta'qibi: Ilm-fan va san'at kishilarning jamiyatdagi o'rnining pasayishi, fanatizmning kuchayishi.

Yovuzlik va yaxshilik o'rtasidagi kurashlarni aks ettiradi- ba'zan yordamchi obraz bosh qahramonga mutlaqo qarama-qarshi qilib yaratiladi. Bu orqali asosiy personajning ijobiy yoki salbiy jihatlari bo'rttirib ko'rsatiladi. Romanda Alisher Navoiy obraziga Nizomulmuluk obrazi qarama-qarshi qo'yiladi. Bu obrazlar Navoiyning adolatparvarlik g'oyalariga qarshi turuvchi "zulmat" kuchlarini ifodalaydi. Ularning yovuzligi fonida Navoiyning "Mangu quyosh" (ma'rifat quyoshi) ekanligi yanada namoyon bo'ladi.

Muhammad Ali ham romanda peyzaj tasvirini, qahramonlarning portret va xarakter sifatib beruvchi tasvirini aniq va lo'nda qilib tasvirlay olgan. Bu orqali ko'rish mumkinki, muallif jamiyatning kamchiliklari bilan bir qatorda yutuqlariga ham alohida e'tibor qaratadi. Chunki jamiyatning eng kichik taraqqiysi ham tarixning evrilishi uchun ba'zan muhim omil bo'lishi mumkin. Ma'lumki, tarixiy asarda yozuvchi badiiy to'qimadan foydalanishi mumkin. Faqat badiiy to'qima voqea va faktlarga soya solmasligi, aksincha, tarixiy haqiqatni to'ldirishi lozim. To'qima timsollar orqali yozuvchi tarix voqealarini to'ldiradi, uni bugungi kun kitobxonlariga tushunarli tarzda yetib borishini ta'minlaydi".

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Qahramonov A. "Mehrobdan chayon" romani poetikasi. F.f.n.diss. T. 2000. B. 121
2. Muhammad Ali. Mangu quyosh. T. Adabiyot. 2023. 86-bet
3. Тўйчиев А.Х. Ўзбек насрида жадид образи талқини. Филол. фан. номз. дис. –Тошкент: 2000. – 68 б